

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ODDIY VA IQTIBOS FARDLAR

UrDU magisrtanti Z.EGAMBERDIYEVA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy fardlarida bayon etilgan badiiy san'atlar tahlil qilingan. Fardlarning didaktik tabiati, tasavvufiy ma'no qamrovi va poetik san'atlarning ularni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos o'rni xususida baxs yuritilgan

ABSTRACT

This article provides poetic arts, had been used in Alisher Navai's fards was analyzed. Didactic character, including of sufism meaning of fards and special role in describing them.

Keywords: Alishir Navai, fard, allegorical, poetic art.

O'zbek adabiyotida hech bir shoir Alisher Navoiychalik ko'p va xo'p ijod qilmagan. Alisher Navoiy qalamiga mansub barcha asarlar o'zining boy mazmuni va saviyasining yuqoriligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Uning barcha asarlariga teran falsafiy va umumbashariy g'oyalar mahorat bilan singdirilgan. Ayniqsa, bu xususiyat Navoiyning fardlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

“Ijodkorning dunyoqarashi ijtimoiy pozitsiyasi har bir janrda janr qonuniyatlari bilan bog'liq holda uning imkoniyatlari darajasi o'z ifodasini topadi”¹. Navoiyning janrning barqaror qonuniyatlariga munosabatlarini aniqlashda, shoir asarlari bilan bir qatorda uning o'z izohlari ham muhim ahamiyatga ega. Agar shoirning izohlari uning u yoki bu masalaga qarashi, ijodiy niyatini anglatasa, asrlarining o'zi ana shu niyatning nazariy asosining real tatbiqi qay darajada amalga oshganligini ochiq namoyish etadi². Fard janr “Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati”³ da “lirikaning eng kichik janri, yolg'iz bir baytdangina iborat bo'lgan mustaqil she'r” deb talqin

¹ Исхоков. Й. Навоий поэтикasi Фан 1983 Б 17

² O'sha asar В 166

³ Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. Homidiy h. ,Adbullayeva Sh. ,Ibrohimova S. T. O'qituvchi, 1979- B. 234
pedagoglar.org

qilingan. “Adabiy tur va janrlar”⁴ da kengroq: “FARD (-arabcha, yakka) alohida yoziladigan yo iqtibos tariqasida g‘azal, qasida yo qit‘adan keltiriladigan, bir baytdan iborat bo‘lgan lirik janr, ikkala misrasi hamqofiya, tugal ma’noli, fikr ko‘pincha aforistik tarzda ifoda etiladigan, ibratli, hajmi bir baytdan ortmaydigan mustaqil adabiy asardir. Ma’lumki, Voxid Tabriziy aytishicha (37-bet), she’r Sharqda qasida, masnaviy, musammat kabi uch turga bo‘lingan, fard esa ruboiy, gazal, qit’a bilan birgadir ,chunki ularning bari bitta qofiya bilan ish ko‘radi. Adabiyotshunos Lyudmila Serikova “Alisher Navoiy lirikasining kichik shakllari”⁵ mavzusidagi tadqiqotida fard janrining qurilishini o‘rgangan. Aynan fardga berilgan lug‘aviy va istilohiy ta’riflar fardning janriy xususiyatlarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qilgan. Fardning birinchi janriy belgisi uning shakli bilan bog‘liq. Fard o‘z tuzilishiga ko‘ra baytning aynan o‘zidan iborat. Uning mana shu belgisidan janrning nomlanishi kelib chiqqan(fard lug‘aviy ma’nosi yolg‘iz,istilohiy ma’nosi bayt).Fardlardagi qisqalik va lo‘ndalik ularning yana bir muhim janriy belgisini- didaktikani keltirib chiqarishi tabiiy hodisadir .Bu janriy belgi fard tematikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Fard tematikasi boshqa lirik janrlarniki kabi rang-barangdir. Fardning didaktik xarakteri uni maqolga yaqinlashtiradi. Fardning shakl va mazmun mutanosibliigi, fikriy tugalligi, mustaqilligi, ixchamligi, qisqaligi, aforistik xarakteri va didaktik xususiyati uni g‘oyaviy-badiiy jihatdan guruhlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ana shu jihatlarga ko‘ra fardlarni uch guruhga bo‘lish mumkin.

1. Oddiy fardlar
2. Iqtibos fardlar
3. Tajnisli fardlar

Shu jumladan, Navoiy fardlarining katta ko‘pchiligi oddiy fardlar, ozroq qismini esa iqtibos va tajnisli fardlar tashkil etadi. Navoiy oddiy fardlari mavjud talab va qonunuyatlarga to‘la amal qilgan holda mukammal yaratilgan. Shoir oddiy fardlar doirasida o‘z mahoratini namoyish qilish bilan bir qatorda, she’riy

⁴ Adabiy tur va janrlar 3 Jildlik. 2-jild: Lirikasining kichik shakllari. Fan. 1992-B. 200

⁵ Serikova L. “Alisher Navoiy lirikasining kichik shakllari” O‘zbek tili va adabiyoti. 1975. N 1. B. 60
pedagoglar.org

san'atlarning ishlatilishi, qofiya va radif, shuningdek, obrazlar tizimini ham puxta ishlagan.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak b'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiy qalamiga mansub ushbu mashhur fard, "Mahbub ul-qulub" ning o'n sakkizinchi fasli " Dabiriston ahliga zikri " da berilgan. Fard aruzning ramali musaddasi maqsur bahrida yozilgan bo'lib, ranj va ganj so'zlari o'zaro qofiya hosil qilgan. Bir va yuz sonlarini keltirish orqali tazod san'ati yuzaga kelgan. Yuqoridagi bayt umrbod o'z ahamiyatini saqlab qolgani holda Navoiy nomi bilan yonma yon tilga olinadi.

Yetar rizqing, agar chun xoradur va gar yoqut,

O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut.

Agar rizqing xora – qattiq toshmi va yoki yoqut - qimmatbaho toshmi, ozmi, ko'pmi, vaqti soatida albatta senga yetib keladi. Qut –yegulik, yemak istab o'zingga anduh-g'am, qayg'u tog'ini yuklama. Rizqing qattiq tosh, ya'ni miqdor jihatdan oz, kam, qiymat jihatdan oddiy, arzon, bir kosa suyuq osh yoki, qattiq non bo'lsa-da, va yoki yoqut - ya'ni miqdor jihatdan mo'l, ko'p, qiymat jihatdan oliy darajadagi, qimmatbaho, tansiq taom, sharbat-u yumshoq non bo'lsa-da, senga rizq qilib taqsimlangan bo'lsa, senga nasib qiladi. Undan ortiq ham, kam ham emas. Qur'oni Karimda eslatilganidek, har kimning rizqi taqsimlab qo'yilgan va unga albatta rizqi yetib keladi. Shunday ekan, o'z ulushingning yetib kelishi aniq bo'lgani holda, haloliga qanoat qilmasdan, kishilarning haqini ham yeyishga urinib, turli yomon ishlar qilib, o'zingga g'am yukini yuklama, chunki harom luqma duolarning yo'lini to'sadi va jahannam oloviga giriftor qiladi. Bu g'am yuki - anduh tog'ini orqalab ketishga o'zingni majbur qilma.

Navoiy fardlari ham shakliy, ham mazmuniy, ham g'oyaviy –badiiy jihatdan yetuk asarlar bo'lib, ularda maqollarga yaqinlik xususiyati mavjud.

Masalan: El aybini ayturg'a birovkim uzotur til,

O'z aybini fosh aylagali til uzotur bil.

Mazkur baytni maqol bilan solishtirib ko'raylik: " maqol hammavaqt aniq, tugal

fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikriy lo'ndalik esa fikrni ixcham ifodalashga imkon beruvchi yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi. Maqol uchun ma'lum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qat'iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir⁶. Navoiy baytida ham aynan shunday manzara ko'zga tashlanadi. Fardda asosiy mazmun: kimda kim birovning aybini topish, kamchiligini fosh qilishga chog'lansa (til uzatsa), o'zining aybini fosh qilishga uringan bo'ladi degan fikr ifodalangan

Navoiy fardlarining mavzu doirasi keng. Ishq, do'stlik, adolat, yashash falsafasi, islomiy pand-nasihati kabi mavzular uning fardlarida yetakchilik qiladi. Xususan, quyidagi fard ishqiy mavzuda bitilgan:-

Ikki ko'zingu labing g'amidin,
Men xasta o'lub-o'lub tirildim.

“Javohiri mufradah” ga kiritilgan ushbu 82-fard da o'ziga xos tarzda tanosub, tazod va ruju' san'ati istifoda qilingan. Bunda oshiq yorining an'anaviy go'zallik ramzlari sanaluvchi k'zlari va labi hasratida xasta b'lib o'lib tiriladi.

Fardlarning ikkinchi turi iqtibos fardlar ijodkor tomonidan nasriy asarlar tarkibida kelgan fakt va dalillarni isbotlash uchun keltiriladi. Iqtibos fardlar uchun shoirlar yoki nosirlar g'azalning u yoki bu baytini ham keltirishi ham mumkin. Ko'p hollarda, ijodkor 'sha nasriy asar yozish asnosida bir bayt yoki ikki bayt miqdorida sher yozib ketishi ham mumkin. Nasriy asarlar tarkibidagi bir baytdan iborat she'rlarni biz iqtibos fardlar sirasiga kiritamiz. Iqtibos fardlar o'zbek adabiyotida «Devonu lug'otit turk» dan boshlangan. Keyinroq iqtibos fardlarning nasriy asarlar tarkibida kelishi o'ziga xos ananaga aylandi. XV asrga kelib bu an'ana Navoiy tomonidan yanada rivojlantirildi.

Elni xor aylagan tama' bilgil,
Doimo azza manqana' bilgil.

“Favoyid ul-kibar” ga kiritilgan 19-fard didaktik mazmunda bo'lib, “Azza man qania va dalla man tamiaali anna –l qani a-ala yudihilluhu t- talab'lu fa-la

⁶. Sarimsoqov B. Xalq tafakkurining olmos qirralari/O'zbek xalq maqollari. - T..1981. - B. 338.

yazalu yazalu azizan Nih” (Zaavi surasi 114-oyat)

“Azza man qana”, zalla man ta'ma ya'ni qanoat qilgan kishi aziz, ta'ma bilan yashagan kishi esa xordir degan fikr ifodalangan.

Iqtibos fardlar ham boshqa fard turlari kabi aforizmlar darajasiga ko'tarilishi mumkin. Shoir bo'lmagan ijodkor asarida iqtibos fardlarning kelishini tojik adabiyotshunosi R.Musulmonqulov shunday izohlaydi: «adabiyotshunoslar ayni bir vaqtda shoir ham bo'lib, ilmiy asarlarida o'zlarining badiiy san'atlari (shoirlik mahoratlari — M.O.)ni namoyish etish maqsadida bir bayt yozib keltirganlar»⁷. Bu fard turiga nasriy asar tarkibidagi barcha baytlarni kiritib bo'lmaydi. Chunki ularning barchasiga ham fardning janriy belgilari namoyon bo'lavermaydi. SHunday qilib, iqtibos fardlar sirasiga nasriy asarlar tarkibidagi fardning janriy belgilarini o'zida namoyon qilgan baytlar mansub xolos. Iqtibos fardlar o'zbek yozma adabiyotida «Devonu lug'otit turk»dagi baytlarlan keyin fard nomalar bag'rida va nasriy asarlar tarkibida ijodkor fikrini isbotlash va dalillash uchun keltirilgan alohida baytlardan boshlandi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, fardlar alohida janr sifatida shakllangunga qadar nasriy asarlar va nomalar bag'rida yashab kelgan. O'zbek mumtoz adabiyotida fard mustaqil janr sifatida, ya'ni devonlar tarkibida o'z o'rniga ega bo'lgan. Uning mustaqil ijod qilinishi va taraqqiyoti XV-XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Fardlarni nomalar zaminida mavjudligini Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sidan boshlab kuzatish mumkin. Xorazmiy «Muhabbatnoma»siga nisbatan Yusuf Amiriy «Dahnoma»sida ko'proq fard keltirilgan. «Dahnoma» tarkibidagi har bir g'azaldan keyin «fard» nomi bilan bayt keltirilgan. Keltirilgan o'sha fardning barchasi nomalar kabi ishqiy xarakterga ega. Garchand bu fardlar janrning belgilarini to'liq namoyon etmasalar-da, biz muallif fikriga qo'shilgan holda ularni fard deb atadik. Nasriy asarlar tarkibidagi fardlar borasida shuni aytish mumkinki, ular ko'pincha matnda «bayt», «matla'», «she'r» deb keltiriladi. Biroq ularda fard janriga xos barcha xususiyatlar mavjud. Nasriy asarlarda keltirilgan fardlar haqida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu

⁷. Sarimsoqov B. Xalq tafakkurining olmos qirralari/O'zbek xalq maqollari.- T..1981. - B. 338.

borada ham miqdor, ham badiiyat jihatidan Alisher Navoiy ijodi benazirdir. Uning «Muhokamat-ul lug'atayn», «Munshaot», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» va «Mezon ul-avzon» kabi asarlarining har birida o'ntadan ortiq, «Mahbubul qulub»ida esa yetmishtagacha «bayt» nomi bilan berilgan ikkiliklar mavjud. To'g'ri, ularning hammasini ham fard deb atash o'zini oqlamaydi. Chunki ular orasida ayrim g'azallarning matla'lari ham bor. Shunga qaramay, bu ikkiliklarning aksariyati mustaqil, alohida yozilgan fardlarni tashkil etadi. Ko'pincha, bu baytlar matnda qissadan hissa tarzida keltiriladi. Masalan:

Bayt:

Kimki bir shiddat aro sabru tahammul ayladi,
Baxt aning nishini, no'sh-u xorini gul ayladi.⁸

Mazkur bayt «sabr zikrida» keltirilgan rivoyatga qissadan hissa sifatida ilova qilingan. Ushbu bayt asosiy matndan ajratib olinsa ham, mustaqil asar sifatida saqlanib qolinaveradi. Navoiyning nasriy asarlarida keltirilgan baytlar aforistik sa'jiya kasb etganligi tufayli ular bu daho ijodkorning aforizmlari qatoridan joy olgan. Bobur ham bu an'anada Navoiyga izdoshlik qilgan. Lekin Navoiydan farqli o'laroq u «Boburnoma»ga kirgan fardlarini o'z devoniga ham kiritgan. Lekin mazmunga jiddiyroq yondashib, ana shu baytlarga mustaqil janr mezonlari nuqtai nazaridan qaralsa, o'zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan barcha fardlar maxsus yozilgan kichik lirik asarlardan iboratdir. Adabiyotshunos L.Serikova oldin g'azal baytlari yaratilib, ular qayta ishlanishi natijasida fardlar yaratilgan degan xulosaga keladi. Bu haqda u shunday yozadi: «Bizningcha, fardlarning janr sifatida ajralib chiqishida asar ichidagi alohida baytlarning nisbiy mustaqilligi asosida yuzaga kelganligi shubhasiz. Shuning uchun ularning tuzilishida keskin o'zgarishlar ro'y bermagan. Barcha janrlarda ham bir bayt alohida tugal fikr ifodalaydi. Shu bilan birga, ko'proq o'zining ixchamligi va ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutgan baytlar kontekstdan ajralib chiqishga

moyildir. Fardlarda ham ana shu xususiyat ko'zga tashlanadi". L.Serikova bunga Navoiy g'azalining matla'si bilan alohida fardi o'rtasidagi bog'lanishni misol qilib ko'rsatadi. R.Orzibekov, L.Serikova fikriga qo'shilgan holda buning aksi ham bo'lishi mumkin degan farazni o'rtaga tashlaydi. Uningcha "ba'zan fard-baytlar oldin yaratilib, ular keyinchalik shoirlar o'ylagan poetik muddaoni kengroq ifodalash maqsadida g'azal, qasida, masnaviy, she'r va ruboylarning yaratilishi asos bo'lishi ham mumkin.". Bu mulohazalarga qo'shilgan holda yana shuni aytish mumkinki, ba'zan g'azalning birinchi bayti-matla'si yozilib, shoirlar uni davom ettirishga ehtiyoj sezmagani hollarida bu bayt fard doirasida qolavergan. Umuman olganda, avval fard yaratilgan, keyin bu fard g'azal baytiga aylantirilganligi, bizningcha, haqiqatga yaqinroqdir. Fard taraqqiyotida Mavlono Lutfiy, Hazrati Navoiy va Boburlarning xizmatlari beqiyosdir. Demak, har bir ijodkor muayyan janrda ijod etar ekan, ana shu janrda o'z salohiyatini imkon darajasida namoyish etadi. Aytish mumkinki, muayyan adabiyot tarkibida janrlarning roli qanchalik muhim bo'lmasin, ularning shakllanishi va o'zgarishi hamma vaqt u yoki bu darajada individual uslublarning taraqqiyoti bilan aloqador. Binobarin, alohida so'z san'atkorlarining harakat va intilishlarisiz adabiyotning jonlanishi mumkin bo'lmaganidek, janrlarning o'ziga xos yangi janriy belgilar kasb etishi ham mumkin emas Navoiy baytida ham aynan shunday manzara ko'zga tashlanadi. Bu o'xshashlikdan maqollarning fard janri ibtidosida ma'lum bir bosqichlik vazifasini o'taganligi ma'lum bo'ladi.

REFERENCES

1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
2. “Алишер Навоий: қомусий луғат” / Масъул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов. – Т.: “Sharq”, 2016. Б. 179.
3. Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти, 2020. 352 бет.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги, Т.: “O,,zbekiston” нашриёти, 2014. – 320 бет
5. Носиров О., Жамолов О. Зиёвиддинов Н. Ўзбек классик шеърляти

жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. 170 б.

6. Ойматова М. А. Ўзбек адабиётида фард жанри поэтикаси ва тарихи / М. А. Ойматова; А.Навоий номидаги тил ва адабиёт ин-ти [дис. ... филология фан. номзоди] : дис. филология фан. номзоди. – Ташкент, 1999. – 131 б.

7. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: 1976. – 168 б.

8. Орзибеков Р. Поэтика и пути развития жанров узбекской классической поэзии. Дис. д.ф.н. – Самарканд, 1983. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр, МАТ,7-жилд, Тошкент, 1991, 26-бет.

9. Серикова Л. Малые формы лирики Наваи. Автореф. Дисс. Канд. Ф.н. – Ленинград: 1975.

10. Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Академнashr”, 2013. – 408 б.

11. Ўзбек адабиётида рубоийлар. – Т.: Фан, 1987